



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRINING BUYRUG'I

296-son

20 23-yil “18” oktyabr

Toshkent shahri

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyaning yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 27-maydag'i PF-5729-son Farmoni ijrosini ta'minlash, vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiya tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarida Shaxsiy xavfsizlik bo'limi boshlig'i komissiya koordinatori etib belgilansin hamda boshqarma tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyasi faoliyatini olib borish yo'lga qo'yilsin.

Tarkibiy tuzilmalarda komissiya koordinatori etib Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi boshliqlari belgilansin.

3. Hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalar boshliqlari:

bir hafta muddatda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiya yangilangan tarkibda tasdiqlansin;

Hududiy boshqarmalarning tuman va shahar bo'limlarida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiya tuzilsin hamda uning ishi va faoliyatni ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi ta'minlansin;

har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar dasturlar va chora-tadbirlarning ijrosi yuzasidan Vazirlik tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyasiga hisobot kiritib borilsin;

hududiy boshqarmalar va ularning hududiy bo'limlari hamda tarkibiy tuzilmalar koordinatorlari tomonidan vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari koordinatorlari bilan muntazam ravishda hamkorlik tashkil etilsin;

doimiy ravishda shaxsiy tarkib ishtirokida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar ta'sirchan tarzda o'tkazilishiga alohida e'tibor qaratilsin;

korrupsiya xavf-xatarlarining o'z vaqtida aniqlanishi va tegishli baho berilishi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish holatlariga yo'l qo'yilishi hamda dasturlar va chora-tadbirlar ijrosining ta'minlanishiga **birinchi rahbarlarning shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.**

4. Favqulodda vaziyatlar vazirining "Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha komissiyaning yangi tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 2-oktyabrdagi 284-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ish yuritish, ma'lumot va arxiv ishlari bo'limi (kapitan N.Istamov):
ushbu buyruq hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarga
"E-xat" tizimi orqali yuborilsin hamda "Germes" axborot tizimiga joylashtirilsin;
o'z kuchini yo'qotgan buyruq o'rnatilgan tartibda hisobga olinsin;
buyruqning mazmun va mohiyati barcha shaxsiy tarkibga yetkazilsin.

6. Mazkur buyruq talablarining bajarilishini nazorat qilishni
o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir
general-mayor

 A.Qo'Idoshev

Favqulodda vaziyatlar vazirining
2023 yil 18 oktyabrdagi 296-sonli
buyrug‘iga ilova

Vazirlilik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi:	Favqulodda vaziyatlar vaziri
Komissiya raisining o‘rinbosari:	Vazirning birinchi o‘rinbosari - Shtab boshlig‘i
Komissiya a’zolari:	Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi boshlig‘i Rejim xizmati boshlig‘i Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i Yuridik ta’minalash xizmati boshlig‘i Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i Moddiy-texnik ta’minot boshqarmasi boshlig‘i Davlat yong‘in nazorati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i Shaharsozlik faoliyati sohasida profilaktika boshqarmasi Qutqaruv kuchlarining xizmat va jangovar tayyorgarligini tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i AKTni joriy etish, raqamlashtirish va ahborotni himoyalash boshqarmasi boshlig‘i Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i Ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig‘i Ta’lim jarayonini tashkil etish va fan innovatsiyani rivojlantirish boshqarmasi Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi Moliyaviy-nazorat inspeksiyasi boshlig‘i Axborot xizmati (jamoatchilik bilan aloqalar) boshlig‘i Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo‘limi boshlig‘i
Komissiya koordinatori:	Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi Korrupsiya va boshqa huquqbazarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘i
Komissiya kotibi:	Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi bo‘lim bosh inspektori

Izoh: Ushbu lavozimlar vakant bo‘lgan taqdirda, boshqarma yoki bo‘limlarning o‘rinbosarlari vaqtincha komissiya a’zosi vazifalarini bajarib boradi.